**XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 29-avgust VI-76-82-8-110-K/24 Boysun tumani

**Boysun tumani budjetining joriy yil II chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq tuman budjetining joriy yil II chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobiga shakillangan mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha xalq deputatlari Boysun tumani Kengashi, **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasi “2020-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2019-yil 9-dekabrdagi O‘RQ-589-son Qonunining 20-moddasiga muvofiq, mahalliy budjetlarining qo‘shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo‘yilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligi, moliya bo‘limi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman budjetining joriy yil II chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi **305,2 mln.so‘mni** tashkil etganligini hisobga olib, ushbu mablag‘lar hisobidan **305,2 mln.so‘m** jami shakllangan mablag‘ning **100,0 foizi** quyidagi sohalarga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son qaroriga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishda tuman budjeti qo‘shimcha mablag‘larining 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorda yo‘naltirish uchun-**91,56 mln so‘m**;

**Tuman hokimligi moddiy texnika bazasini mustahkamlash uchun-206,64 mln so‘m.**

- qo‘riqlash xizmatiga–30,0 mln so‘m;
- viloyat hokimligi huzuridagi internet DUK abonent to‘loviga–25,0 mln so‘m;
- xizmat avtomashinalariga avtobenzin sotib olish uchun–17,0 mln so‘m;
- xizmat avtomashinalariga metan gaz sotib olish uchun–20,0 mln so‘m;
- Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo‘llab-quvvatlash e-qaror elektron tizimi uchun–12,3 mln so‘m;

- konvert marka sotib olish uchun–8,0 mln so‘m;

- xizmat avtomashinalarini joriy ta’mirlash ishlari uchun–35,0 mln so‘m;

- teleko‘rsatuvlar tayyorlash va efirga uzatish xizmati uchun–10,0 mln so‘m;

- tuman hokimligi axborot xizmati rahbarini rag‘batlantirish uchun–5.4 mln so‘m;

- tuman hokimligi xodimlariga rag‘batlantirish to‘lovi uchun–34,04 mln so‘m;

- Saylov o‘tkazuvchi tuman saylov komissiyasi a’zolarini kompensatsiya to‘lovlari–9.9 mln so‘metib belgilansin.

**Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyatiga-7,0 mln. so‘m**

Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati xodimi F.Tursunqulovga rag‘batlantirish to‘lovi uchun-7,0 mln. so‘m

4. Sherobod tumanlararo iqtisodiy sudining 2024 yil 2 fevraldagi 4-1902-2302/3407-sonli hal qiluv qaroriga muvofiq tuman mahalliy budjetiga **yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishan tushgan pul mablag‘lari hisobdan “Mansurov Hamro” fermer xo‘jaligiga yetkazilgan zararni qoplash uchun-172,040 ming so‘m o’tkazib btrilsin.**

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 dekabr kuni mamlakatimiz Yoshlari bilan o‘tkazilgan O‘zbekiston Yoshlar forumi yuzasidan tasdiqlangan 100-sonli bayonning 18-bandi topshirig‘iga asosan O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti va uning filiallariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahar **hokimliklari tavsiyasiga asosan qabul qilingan talabalarning o‘quv kontraktiuchun yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishan tushgan pul mablag‘lari hisobdan-40,352 ming so‘m ўtkazib berilsin.**

6. Qo‘shimcha manbalarning bir qismini tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish munosabati bilan tegishli tashkilot va muassasalar hisobiga o‘tkazib beriladigan mablag‘larning natijadorligini va maqsadliligini ta’minlash uchun Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga xarajatlar yo‘nalishini aniqlashtirish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman budjetining joriy yil II chorak yakuniga ko‘ra daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan tuman hokimligi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

8. Tuman budjetining qo‘shimcha manbalaridan mablag‘ oluvchilarning rahbarlari ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanilishi, shuningdek ushbu mablag‘larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Boysun tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O‘.Jabborov zimmasiga yuklatilsin.

10. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi

SHUKUROV BOXADIR
SHOTURAYEVICH